

QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA  
PHILOLOGY

## ALISHER NAVOIY ASARLARI BO‘YICHA TUZILGAN ILK LUG‘ATLAR XUSUSIDA

**Uluqov Nosirjon,**

*NamDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi  
professori, filologiya fanlari doktori*

**Mamajonova Mashhura,**

*NamDU mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha tuzilgan ilk lug‘atlar va ularning turkologiya, xususan, o‘zbek tilshunosligi, leksikografiyasidagi ilmiy va amaliy ahamiyati masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** *leksikografiya, lug‘at, izohli lug‘at, qo‘lyozma, eski o‘zbek alifbosi, nasta‘liq xati.*

**Аннотация.** В статье рассматриваются первые словари, составленные по произведениям Алишера Навои, и их научное и практическое значение в тюркологии, в частности, узбекском языкознании, и лексикографии.

**Ключевые слова:** *лексикография, словарь, толковый словарь, рукопись, староузбекский алфавит, насталик.*

**Abstract.** The article discusses the first dictionaries compiled on the works of Alisher Navoi and their scientific and practical significance in Turkology, in particular, Uzbek linguistics, and lexicography.

**Keywords:** *lexicography, dictionary, explanatory dictionary, manuscript, old Uzbek alphabet, Nasta‘liq script.*

**Kirish.** Turkiy tillar tadqiqining ilk davrlarida Alisher Navoiy asarlariga alohida e‘tibor berildi. Tilimiz uning asarlari asosida o‘rganildi. Natijada Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha bir necha lug‘atlar yaratildi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan birinchi qomusiy lug‘at “**Badoyi al-lug‘at**” hisoblanadi. U Husayn Boyqaro farmoni bilan tuzilgan. Agar uning vafoti 1506-yil ekanligini hisobga olsak, lug‘at 1500-yillar orasida tuzilganligi ma‘lum bo‘ladi. Hozir lug‘atning ikki nusxasi ma‘lum. Biri Eronda, Sipohsolar kutubxonasida, ikkinchisi Sankt-Peterburg xalq kutubxonasida saqlanmoqda. Lug‘atning Sankt-Peterburg shahridagi qo‘lyozmasi 1750-yillarda ko‘chirilgan bo‘lib, 1960-yilda A.K.Borovkov tomonidan nashr qilingan.

Olim kitobni nashrga tayyorlashda so‘zlarning fonetik tuzilishiga oid nodir ma’lumotlarni negadir tushirib qoldirgan. Natijada lug‘at hamma yodgorliklar qatori oddiy transkripsiyada berilgan. Aytish lozimki, ushbu lug‘atda XV asr unli va undoshlar tizimi, eski o‘zbek alifbosi maxsus atamalar orqali yaxshi yoritilgan. Lug‘at muallifi Toli Imoniy eski o‘zbek tilidagi unli tovushlarni ko‘rsatish uchun butun mahoratini ishga solgan. Natijada u tilda mavjud bo‘lgan 11 unli tovushning har birini aniq ko‘rsatgan.

Lug‘at arab alifbosi asosida tuzilgan. Forsiy *p, g, ch* harflari maxsus *boy ajamiy, kofi ajamiy, jimi ajamiy* terminlari orqali ko‘rsatilgan.

Lug‘atshunos lug‘at tuzishda o‘rta asr qomuschiligining eng yaxshi an‘analaridan foydalangan. Har bir so‘z haqida uch xil ma’lumot qoldirgan:

1) so‘zning tovush tuzilishi; 2) uning ma’nosi; 3) grammatik xususiyati.

Lug‘atshunos XV asrda, Alisher Navoiy davrida so‘zlar qanday talaffuz qilingan bo‘lsa, shunday qayd etadi. Xullas, **“Badoyi ul-lug‘at”** XV asr eski o‘zbek lug‘atchiligining noyob yodgorligi hisoblanadi.

1990-yili dekabr oyida “Shohnoma”ning ming yillik tantanalarida qatnashgan taniqli navoiyshunos olim S. G‘aniyeva Tehron universiteti markaziy kutubxonasi bilan tanishish vaqtida Alisher Navoiyga oid bir qo‘lyozma borligini aniqladi. Qo‘lyozma bilan tanishish uni fanda hali ma’lum bo‘lmagan o‘zbekcha-turkcha **“Lug‘ati Navoiy”** ekanligi aniqlandi. Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha tuzilgan ushbu lug‘at 70 betdan iborat bo‘lib, har betiga 155 satrdan yozilgan. Qo‘lyozma chiroyli nasta’liq xatida bitilgan lug‘at oxirida tuzuvchining ismi-sharifi va asar tarixi aniq ko‘rsatilgan: Rajab ibni Muhib Ali Shomlu, tarixi 1599-yil.

Lug‘atshunos har bir so‘z ma’nosini tasdiqlash uchun bir bayt misol keltiradi. Chunonchi, *ellik* so‘ziga quyidagi bayt misol tariqasida keltirilgan: *Ellik* (10 b) tashdid ilovali demakdir, bayt:

*Ellik bila altmishqa yetti qadamim,  
Ne ma’niki bo‘lmadi erkin raqamim.*

Lug‘atshunos so‘z tuzilishini aniq ko‘rsatish maqsadida so‘zlarni alifbo tartibida bo‘lib chiqqach, ular tarkibidagi ikkinchi harfni ta’kidlash maqsadida ularni yana uch: fathali, zammali, kasrli bo‘limlarga bo‘ladi.

Xullas, o‘rta asr lug‘atchilik an‘analari asosida tuzilgan ushbu lug‘at bir tomondan Alisher Navoiy asarlarini o‘qish, o‘rganishga o‘sha davridayoq katta qiziqish uyg‘otganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan bugungi o‘quvchi uchun shoir asarlaridagi eski o‘zbek tiliga oid so‘z ma’nolarini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Bundan V asr ilgari tuzilgan birinchi o‘zbek tilining izohli lug‘ati fanda **“Abushqa”** nomi bilan atalgan yodgorlik katta ahamiyatga ega. Ilgari bu lug‘atning 1552-yilda kitobat qilingan Vena nusxasidan foto ko‘chirma olingan edi. Endi Tehron nusxasidan ham ko‘chirma olindi.

Olimlarning ko‘rsatishicha, qo‘lyozma to‘liq va yaxshi saqlangan. Lug‘at yirik nasta’liq xatida yozilgan. Hajmi 201 varaq, ya’ni 402 betdan iborat. Har betda to‘rttadan sakkiztagacha so‘z misollar bilan izohlangan.

Lug‘atning bu nusxasi Tehrondagi Malak kutubxonasida “Farhangi Devonu Amir Alisher Navoiy” nomli qo‘lyozma tarkibida saqlanmoqda. Bu qo‘lyozma tarkibida bundan boshqa yana “Xulosai Abbosiy” va Nadr Ali lug‘atlari bor.

Afsuski, “Abushqa”ning muallifi masalasi munozarali. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, lug‘atning muallifi masalasi munozarali. Shu boisdan ko‘p manbalarda lug‘atning muallifi noma‘lum deb ko‘rsatiladi. O‘zbek adabiy tili tarixiga doir ilmiy manbalarda lug‘at muallifi Aloiy ibn Muhibbiy ekanligi ko‘rsatiladi, biroq H. Fattohov “Abushqa” muallifiga oid maxsus maqolasida buning xatoligini asoslagan. B.Hasanovning fikricha, lug‘atning tuzuvchisi “Rumiy” nisbali kishidir.

Bu boradagi so‘nggi yangilik: E.Ahmadxo‘jayevning Lutfiyga bag‘ishlangan risolasida “Abushqa” Mustafo binni Sodiq tomonidan yaratilganligi qayd etilgan.

Ushbu lug‘atning Navoiy asarlariga tuzilgan boshqa lug‘atlardan farqi shuki, unda shoirning tilshunoslikka bag‘ishlangan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asaridan ham misollar berilgan.

Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha tuzilgan qo‘lyozma lug‘atlardan yana biri Fathali ibn Kalbali ibn Murshidquli ibn Fathali Qojar Qazviniyning **“Lug‘ati atrokiya”** asaridir. Bu lug‘at Sankt-Peterburg universiteti kutubxonasida saqlanadi. Lug‘atni u yerga sharqshunos A.A.Romaskevich Tehrondan 1914-yilda olib kelgan. 1862-yilda yozib tugallangan bu lug‘at Alisher Navoiy asarlariga qiziqish natijasida tuzilgan. Unda shoir asarlaridagi 8000 ga yaqin turkiy so‘z forscha izohlangan.

Bu lug‘atda so‘z tuzilishi ikki xil izohlangan: ham harakatlar bilan, ham fonetik terminlar yordamida. Lug‘at arab alifbosi bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, o‘zbek tiliga xos *p, g, ch, k* harflari maxsus atamalar bilan kiritilgan.

Fathalixon so‘z ma’nolarini lo‘nda va ixcham izohlaydi. U so‘z ma’nolarini tasdiqlash uchun asosan bir bayt misol keltiradi. Lug‘atda so‘zlarning asosan bir ma’nosi keltiriladi, ayrim so‘zlarnigina bir necha ma’nolari qayd etilgan. Lug‘atda turkiy so‘zlardan tashqari mo‘g‘ulcha so‘zlar ham uchraydi. Ular “ba lug‘ati mo‘g‘ul” belgisi bilan ko‘rsatiladi.

Lug‘atda XIX asrdagi o‘zbek tili bo‘yicha noyob ma’lumotlar saqlangan. Fathalixon unli va undoshlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Lug‘at ma’lumotlari quyidagi unli tovushlar borligini ko‘rsatadi:

- 1) alifi mamduda – cho‘ziq a;
- 2) alif, fatha – oddiy a;
- 3) zamma – u;
- 4) zamma fathali – u;
- 5) kasra – i;
- 6) kasra fathali – e;
- 7) vovi ma’lum – cho‘ziq u;
- 8) vovi majhul – qisqa u.

Besh yuz yil davomida Alisher Navoiy asarlari turli maqsadlarda, turli hajmlarda ko‘chirilib kelindi. Ba’zi adabiyot ixlosmandlari ko‘chirib olingan g‘azallarni to‘g‘ri tushunish uchun ulardagi qiyin so‘zlarning maxsus lug‘atlarini tuzganlar. Ana shunday lug‘at tuzganlardan biri xivalik Oxund ibn Mir Husan Chahorgo‘yidir. Oxund bir necha yil mashaqqat chekib, Alisher Navoiyning shoh asari “Xazoyin-ul-maoniy”ni ko‘chirib tugatgach, undagi g‘azallarini o‘qib tushunish uchun devon oxiriga bir kichik lug‘at ilova qilgan. U devonning to‘qqiz betiga, ya’ni 392-401-sahifalariga chizilgan jadvallar ichiga joylashtirilgan. Har bir betdagi jadval qirq sakkiz katakdan iborat bo‘lib, so‘z va uning ma’nolari ana shu kataklar ichiga yozilgan.

Lug‘at 1849-yili yozib tugallangan.

Lug‘at chiroyli nasta’liq xatida yozilgan. Lug‘at arab-fors alifbosi bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, unda jami yetti yuz so‘z izohlangan. Har bir harfga ma’lum miqdorda so‘zlar keltirilgan. O‘zbek tili uchun yot bo‘lgan *se, zod, itqi* harflariga barmoq bilan sanarli oz so‘zlar berilgan. Oxund ibn Chahorgo‘yi so‘zlarni izohlashda ularning qaysi tilga oidligiga qarab emas, balki qanchalik xalqqa tushunarli ekanligiga e’tibor beradi. Ba’zi arabiy-forsiy so‘zlar keng xalq ommasiga tanish, tushunarli so‘zlar bilan tushuntirib berilgan: *avroq – varaqlar, ashkol – shakl, arqom – raqam* kabi.

**Xulosa.** Ushbu mo‘jaz lug‘at ikki jihati bilan ahamiyatli. Bir tomondan u otabobolarimizning ilm-ma’rifatga qanchalik intilganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan oddiy bir adabiyot ixlosmandining shunchalik hafsala bilan lug‘at tuzganligi, inqilobgacha o‘zbek xalqining atigi ikki foizi savodli edi, degan fikrlarni asossiz ekanligini ko‘rsatuvchi dalil sifatida diqqatga sazovor.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбек адабий тили тарихи очерклари. – Самарқанд, 1969. – Б. 170.
2. Фаттоҳов Ҳ. “Абушқа” муаллифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. – №2.
3. Ҳасанов Б. Жавоҳир ҳазиналари. – Тошкент, 1989. – Б. 17.
4. Аҳмадхўжаев Э. Туркий назмнинг сеҳргари (Лутфий ҳақида адабий-тарихий ва илмий манбалар). – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 57.